



JAZOIR YOZUVCHISI AT-TOXIR VATTORNING “OLOVLI SO‘QMOQLAR”
ROMANIDA MILLIY KOLORIT VA UNING XUSUSIYATLARI.

G‘offorova Gulnoza

Alfraganus universitet Xorijiy Sharq tili(arab)

fan o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Jazoir yozuvchisi At-Toxir Vattorning “Olovli so‘qmoqlar” romanida milliy kolorit va uning xususiyatlarini o‘rganish tarjimonning muammolaridan biri deb qaralgan. “Olovli so‘qmoqlar” romanida duch kelgan milliy koloritning qanday tarjima qilinganligi, uning tarjima qilish usullari romanning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasini qiyoslash misolida ochib berilgan*

Kalit so‘zlar: *milliy kolorit, tarjimon, arab, o‘zbek, tarjima, milliylik, transliteratsiya, analogiya.*

Barchamizga ma‘lumki, tarjima o‘ta nozik jarayon bo‘lib, bunda tarjimon bor mahoratini ishga solib uni qayta yaratish ustida tinimsiz samarali izlanishlar olib borishi talab etiladi. Uning dolzarbligi shundaki, kitobxon uchun notanish bo‘lgan asar albatta tarjimon orqali yetib keladi va bu asardan ma‘naviy ozuqa olishda yoki umumiy tasavvurga ega bo‘lishda qayta yaratilgan asarning asliga muqobilligi juda muhimdir. Shu o‘rinda “A.Mo‘minova bu haqida shunday fikr bildiradi: " Tarjima bilan shug‘ullanuvchi shaxs, ya‘ni tarjimon ikki til, ikki millat o‘rtasidagi ko‘prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi". Darhaqiqat, butun bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, an‘analari va dunyoqarashi albatta uning tilida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bu jihatdan tarjimon zimmasida turgan mas‘uliyat juda katta. Ayniqsa muayyan xalq tiliga mansub bo‘lgan milliy so‘zlarni ya‘ni xos so‘zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e‘tiborga molikdir. Chunki tarjimon asarni qanday ko‘z bilan ko‘rsa o‘quvchi ham shundayligicha qabul qiladi, xulosa chiqaradi”¹.

Badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga noma‘lum bo‘lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Milliylik u yoki bu millatning ma‘naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklardan iboratdir. Ma‘naviy faoliyatga kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, cholg‘u asboblari, pazandachilik, ismlar va boshqalardir. “ Kolorit asarning g‘oyaviy mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, san‘atkor ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oya va badiiy obrazni yaqqolroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. O‘y-niyat, g‘oya, muddaoni ifodalashda, obrazni gavdalantirishda bo‘yoqlarga alohida e‘tibor beradigan san‘atkor birinchi navbatda asarning muallifi bo‘lsa, ikkinchi navbatda

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-so-zlarning-tarjimada-berilishi>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tarjimondir. Uni biz kolorist-rassom deb ham atashimiz mumkin. Badiiy asarning kitobxonga tushunarli va qiziqarli bo'lishida albatta asar muallifining o'rni beqiyosdir. Asardagi qaxramonlarning ismidan tortib uning hayotidagi o'zgarishlari, voqealarning rivoji, qaxramonlarning taqdiri, badiiy tasvirning bo'yoqdorligi, va hattoki asar qaxramonlarining kiyim-kechaklari-yu taqinchoqlarining tasvirlanishi ham yozuvchining qanchalik mohir ekanligini namoyon qiladi. Bu esa yozuvchidan ko'p yillik tajriba, bilim va malakani talab qiladi"².

Adabiyotshunoslik ko'p yillik tarixga ega. Uning rivojlanishi esa bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda adabiyot namoyondalarimiz sermahsul ijod qilishgan. Ularning ijodlari ular yashab o'tgan davr shukuhiga qarab o'zgargan rivojlangan. Shunday ijodkorlar qatorida XX asr Jazoir adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan Jazoir yozuvchisi At-Toxir Vattorni aytishimiz mumkin.

Jazoir romanchi, hikoyachi va dramaturgi At-Toxir Vattor 1936 yil 15 avgustda Jazoirda tavallud topgan. U arab tilida yozgan Jazoirning eng ko'zga ko'ringan adiblaridan biri bo'lgan. At-Toxir Vattorning ijodi asosan o'z vatanida so'nggi o'ttiz yil ichida sodir bo'lgan inqilobiy o'zgarishlarga bag'ishlangan.

“At-Toxir Vattor Jazoir xalqining 1954-1962 yillar inqilobiy harakati, milliy –ozodlik kurashi mashaqqatlarini boshdan kechirgan yozuvchilar avlodiga mansub ijodkordir. Bu Jazoir xalqining hayotida muhim burilish davri bo'ldi.

Milliy-ozodlik uchun olib borilgan inqilobiy kurashning olovli yillari Jazoir madaniyati, xususan adabiyotining bosh mavzusi, asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi. 40- yillar oxiri 50-yillar boshida kolonial tuzumga qarshi kurash davrida shakllana boshlagan bu adabiyot g'oyat tezkorlik va qat'iyat bilan hozirgi zamon osiyo-afrika adabiyotlari orasida yetakchi o'rinlardan birini ishg'ol qila oladi.

Maqolani yozishda manba sifatida At-Toxir Vattorning 1974 yilda arab tilida nashr etilgan ikki roman: “Olovli so'qmoqlar” va “Zilzila” romanidan biri bo'lgan “Olovli so'qmoqlar” romanini oldik. At-Toxir Vattor bu yirik asarlarni yaratishga tajribali va yetuk so'z san'atkori sifatida kirishdi. Har ikkala asarni, o'zining estetik fazilatlarini bilan ham, hozirgi zamon arab prozasining eng yaxshi namunalari qatoriga qo'shish mumkin. Bu asarlar yolg'iz Jazoirda emas, balki undan ham uzoqlardagi keng arab kitobxonlariga manzur bo'lganligi fikrimizning dalilidir. Har ikkala roman At-Toxir Vattorning ular yozilgunga qadar bo'lgan butun adabiy va siyosiy faoliyatining (ayniqsa, Jazoirni ozod etish milliy fronti partiyasi markaziy organlaridagi ishlarining) yakuni o'laroq maydonga keldi. Bu roman rus tili va o'zbek tillariga tarjima qilindi. Arab tilidan o'zbek tiliga Baxtiyor Ibrohimov va tarjimon Muhammad Yusupov tarjima qildilar"³.

² Ха м р о е в Ҳ. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадий таржима // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1982.

³ Ibrohimov B va Yusupov M “Olovli so'qmoqlar” .-T:Радуга,1986



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Tarjimon voqelikni idrok qilmasdan turib, muallif aslida nimani yetkazib bermoqchiligini hali o'zi anglamasdan turib, tarjimani muvaffaqiyatli yakunlay olmaydi. Ma'lumki, qaysidir davlatda yashab ijod etgan bir yozuvchining asarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, uni tarjima til sohiblariga havola qilish bu faqat asarni tanitish yoki bekorchilikdan nima qilishini bilmay zerikib o'tirgan kishiga ovunchoq topib berish emas, balki o'sha millat bilan, o'sha millatning urf-odatlaridan tortib to ularning o'zlariga xos bo'lgan milliy xususiyatlariyu tarixi, o'tmish kechmishlari va buguni bilan tanishtirish demakdir. Bu esa milliy koloritga borib taqaladi. Milliy kolorit badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibliigi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi ko'zda tutiladi. Ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar tarjimashunoslikda relaiylar, boshqacha aytganda milliy xos so'zlar deyiladi.

“Realiylar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi”. Shuning uchun ham realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalg'itadigan jihatlarni tashkil etadi”⁴.

“Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'zga xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi”⁵.

Tarjimada til almashgani bilan undagi milliylik qoladi. “Milliy kolorit tushunchasining bir qancha tarkibiy qismlari mavjud, Jazoir yozuvchisi At-Toxir Vattorning “Olovli so'qmoqlar” romanida keltirilgan milliy koloritga oid xos so'zlarni tarjimon o'zbek tiliga o'g'irganida xos so'zlarni tarjima qilishning bir necha usullari transliteratsiya, sarlavha osti izohi, kalkalash, analogiya, yangi so'z yasash kabi usullaridan biri bo'lgan **transliteratsiya** va **izohli tarjima** usullaridan foylanishni ma'qul ko'rgan. Chunki so'zlarning arablarga xos bo'lgan milliyligini saqlab qoluvchi bu so'zlarning ta'sir kuchi va o'ziga xosligini saqlab qolishdek asosiy vazifani ustun deb bilgan. Quyida siz bilan milliy koloritning bir nechta tarkibiy qismlariga kiruvchi so'zlarni At-Toxir Vattorning “Olovli so'qmoqlar” romanidan misol keltiramiz:

1. Xalqning moddiy tirikchilik sharoitidan olingan xos so'zlar va ularni tarjima qilish xususiyatlari: qaxva (قهوة)

⁴ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014

⁵ Ibrohimov B va Yusupov M “Olovli so'qmoqlar” .-T:Радуга,1986.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2. Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi: Si Hamud (سي حمود), Qaddur, Al-Laaz..

3. Diniy istilohlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada berilishi: fatalizm(taqdirga , peshonada yozilganiga ishonishdan iborat dunyoqarash)

4. Jo'g'rofiy nomlar: Tunis, Hundixitoy, Mag'rib...

5. Pul birliklari tarjimasi: dinor, dirham,chaqa..

6. O'lchov birliklari: ratl qaxva (449.28 grammga teng o'lchov birligi)

7. Taom nomlari:kuskus كسكس

8. Kiyim –kechaklar nomi: Burnus(yoqasiga qaytarma qalpoq biriktirib tikiladigan yopinchiq-plash), qashabiyya- barbariyalar yopinadigan keng ustki kiyim”⁶

“Tarjimon romandagi milliy koloritga oid bo'lgan xos so'zlarni tarjima qilishda transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi – asliyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir”⁷. Albatta, transliteratsiyadan keyin ko'pincha matn ostida izoh beriladi.

Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi. Bu usulning nozikligi shundaki, me'yor buzilsa, realiyalar milliy o'ziga xoslik belgilari emas, balki unga yot bo'lgan ekzotik belgilarga aylanadi, kitobxonni chalg'itadi. Realiyalar ekvivalent topilmaganda va tarjima qilishning iloji bo'lmagandagina transliteratsiya qilinishi mumkin . Ko'pincha transliteratsiya yoki transkripsiya usulida tarjimaga ko'chgan so'zlar anglatgan ma'no yoki tushunchani o'quvchi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida sarlavha osti izohlari va tushutirishlaridan foydalaniladi. Quyidagi so'zlar ham shu yo'sinda tarjima qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy so'zlarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan ushbu usullarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olib milliy koloritni saqlagan holda tarjima qilish talab etiladi. Shunday ekan, tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qilish, ayniqsa ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Х а м р о е в Х. Миллий хос сўзлар – реаліялар ва бадий таржима // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1982.

2. Ibrohimov B va Yusupov M “Olovli so'qmoqlar” .-T:Радуга,1986.

⁶ 3. O c h i l o v E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014

⁷ O c h i l o v E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. O c h i l o v E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014
4. Соипова М. Tarjimaда миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Tarjima муаммолари
5. Саломов Ф. Tarjima назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978.
6. С а л о м о в Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: “Фан”, 1966.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-so-zlarning-tarjimada-berilishi>

